

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVASIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
TURIZM VA SERVIS KAFEDRASI**

Qo‘lyozma huquqida

UDK 338.48(575.1)

A‘ZAMOV SAIDAKBARXON AVAZXON O‘G‘LI

**O‘ZBEKISTONNING ZIYORAT TURIZMIDAGI
SALOHIYATI**

**71010403–Ziyorat turizmi mutaxassisligi bo‘yicha
mutaxassisligi bo‘yicha**

magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA




Ilmiy rahbar:

i.f.d.(DSc), Prof. Aliyeva M.T

TOSHKENT 2023

Magistrlik dissertatsiya ishi "Turizm va servis" kafedra dastlabki humoyaga o'tgan.

_____ -sonli bayonnoma "20" aprel 2023 y.

Kafedra mudiri:	I.A. Axmedov	 imzo	<u>05.05.2023</u> sana
Ilmiy rahbar:	M.T. Aliyeva	 imzo	<u>05.05.2023</u> sana
Talaba:	S.A.A'zamov	 imzo	<u>05.05.2023</u> sana

Dissertatsiya mavzusi Magistratura bo'limida 2022 yil
"20" dekabr

№ 808T raqami bilan ro'yhatga olingan.

ANNOTATSIYA

O'zbekistonda ziyorat turizmi klasterini amalga oshirish siyosati uch darajada, ya'ni: mamlakat darajasida, mintaqa darajasida, tegishli korxonalar va tashkilotlar tuzilmalari darajasida yaratilishi va amaliyotga joriy etilishi lozim.

O'zbekistonda davlat darajasida ziyorat turizmi klasteri siyosatini amalga oshirish yo'nalishlari quyidagilardan iborat deb hisoblaymiz:

- ziyorat turizmi klaster siyosati sohasida mamlakat boshqaruv tizimlarining tegishli vakolatlarini belgilab berish, taqsimlash va o'zaro muvofiqlashtirish:

- ziyorat turizmi klasterga oid tashkiliy-iqtisodiy, me'yoriy-huquqiy bazani shakllantirish;

- ziyorat turizmi milliy klaster siyosatini ishlab chiqish va takomillashtirish;

- ziyorat turizmi klasterlarning shakllanishi va rivojlanishida

tashkiliy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, moliyaviy va boshqa tegishli sharoitlar bilan ta'minlash;

- ziyorat turizmida raqobatbardosh klasterlarning barcha mavjud sub'ektlari faoliyatini qo'llab-quvvatlashdagi mukammal mexanizmlarini ishlab chiqish;

- ziyorat turizmida klaster sub'ektlarining xalqaro turizm bozorida raqobatbardoshlik xususiyatlarini shakllantirishda qo'llab quvvatlashga oid hamkorlik munosabatlarni tashkiliy-iqtisodiy mexanizmni rag'batlantirish usullarini yaratish, mamlakatda soxani rivojlantirishda klasterli yondashuvdan unumli foydalanishning metodologik asoslarini yaratish;

- ziyorat turizmida klasterlarni shakllantirish va takomillashtirish jarayonlariga ko'maklashuvchi davlat institutlarini shakllantirish va jalb etish;

- ziyorat turizmida klasterlarning shakllanishi va takomillashuvida axborot, o'quv- konsalting, ta'lim va ilmiy ta'minoti mexanizmlarini shakllantirish amaliyotga jalb etish

Kalit so'zlar: turizm, turist, ziyorat turizm, infratuzilma, klaster, resurs, loyiha, ziyoratgoh, prognozlash.

SUMMARY

The policy of implementation of pilgrimage tourism cluster in Uzbekistan should be created and put into practice at three levels, i.e. at the level of the country, at the level of the region, at the level of the structures of the relevant enterprises and organizations.

We believe that the directions for the implementation of the pilgrimage tourism cluster policy at the state level in Uzbekistan are as follows:

- determination, distribution and mutual coordination of relevant powers of the country's management systems in the field of pilgrimage tourism cluster policy:

- formation of the organizational-economic, regulatory-legal framework for the pilgrimage tourism cluster;

- development and improvement of the national cluster policy of pilgrimage tourism;

- Pilgrimage tourism in the formation and development of clusters providing organizational-legal, socio-economic, financial and other relevant conditions;

- development of excellent mechanisms for supporting the activities of all existing entities of competitive clusters in pilgrimage tourism;

- to create methods of encouraging the organizational-economic mechanism of cooperative relations related to supporting cluster subjects in the formation of competitiveness characteristics in the international tourism market in pilgrimage tourism, to create methodological bases for effective use of the cluster approach in the development of the sector in the country;

- formation and involvement of state institutions that assist in the processes of cluster formation and improvement in pilgrimage tourism;

- to involve in practice the formation of information, training-consulting, educational and scientific support mechanisms in the formation and improvement of clusters in pilgrimage tourism.

Key words: tourism, tourist, pilgrimage tourism, infrastructure, cluster, resource, project, pilgrimage, forecasting

MUNDARIJA

Annotatsiya	3
Mundarija.....	5
Keltirilgan jadvallar ro'yhati.....	6
Keltirilgan rasmlar ro'yhati.....	6
Keltirilgan qisqartmalar.....	6
KIRISH	7
Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi	7
Tadqiqot maqsadi va vazifalari.....	9
Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari	9
Tadqiqot obyekti va predmeti.....	10
Tadqiqot ilmiy yangiligi.....	10
Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi.....	10
I BOB. ADABIYOTLAR SHARHI	12
1.1. Mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlar sharhi.....	12
1.2. Mavzuga oid mahalliy me'yoriy-huquqiy hujjatlar sharhi.....	18
1.3. Mavzuga oid ilmiy adabiyotlar sharhi.....	24
II BOB. METODOLOGIYA	26
2.1. Ma'lumotlarni to'plash jarayoni.....	26
2.2. Tahlil uchun qo'llaniladigan usullar.....	30
2.3. Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi.....	34
III BOB. TAHLIL VA NATIJALAR	40
3.1. O'zbekistonda ziyorat turizmining rivojlanish istiqbollari.....	40
3.2. O'zbekiston milliy iqtisodiyotining rivojlanishiga turizm industriyasining ahamiyati.....	49
XULOSA	55
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	59

KIRISH

Dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi

Turizm eng tez rivojlanayotgan tarmoqlardan biri hisoblanadi. Mutaxasislarning fikriga ko'ra, turizm XXI asrning eng daromadli sohasiga aylanadi. Hozir u dunyoda rivojlanish bo'yicha avtomobilsozlik va neftni qayta ishlash sohasidan keyin uchinchi o'rinni egallab turibdi. Turizm transport, oziq-ovqat, mehmonxona, savdo-sotiq, hunarmandchilik, qurilish va boshqa ko'ra xizmat turlarini ham rivojlanishiga olib keladi. Bundan tashqari, mamlakat tashqi qiyofasini zamonaviylashtirishga, mehmonxona va restoran industriyasini rivojlantirishga hamda transport-kommunikatsiya tizimlari kabi tarmoqlar o'rtasidagi aloqalarni shakillantirishga xizmat qiladi.

Turizmning global rivojlanishi dunyo mamlakatlarini yaqinlashtirib, ularning o'zaro munosabatlarini faollashtirishda eng ishonchli va eng mustahkam tizimdir. Turizm rivojlanishi deyarli barcha sohalarga ijobiy ta'sir ko'rsatib mamlakat iqtisodiyotining dinamik tarzda o'sishiga olib keladi. Shuningdek, sohaga kiritilayotgan sarmoya qisqa fursatda o'zini oqlashi, turistik kompaniyalar imkoniyatlari kengayishi hamda yuqori foyda olish mumkinligi sohaga jalb qilinayotgan investitsiyalar hajmini oshirmoqda. Shuning uchun, ko'pgina davlatlar va tadbirkorlar turizmning rivojlanishi uchun katta e'tibor bermoqdalar.

Shu boisdan ham turizmni rivojlantirish, uning iqtisodiyotdagi o'rnini oshirish uchun alohida e'tibor qaratilib, bu borada qator islohotlar amalga oshirmoqda. Bu islohotlar o'zbek turizmining rivojlanishida eng muhim qadamlardan bo'lmoqda. Shu jumladan Prezidentimizning 2017-yil 7-fevraldagi Farmoni bilan tasdiqlangan 2017-2021yy. O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida ham tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish maqsadida turizm industriyasini jadal rivojlantirish,